



## O‘ZBEK MILLIY RANGTASVIR SAN’ATIDA TABIAT VA O‘SIMLIKLARNING TASVIRLANISHI

O‘rinboyeva Mo‘tabar Yakubovna,  
Samarqand viloyat o‘lkashunoslik muzeyi bo‘lim mudiri

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.19606203>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘zbek tasviriy san’atida tabiat manzaralari va o‘simliklar dunyosining tutgan o‘rni, ularning miniatyura san’atidan zamonaviy rangtasvirgacha bo‘lgan evolyutsiyasi hamda ramziy ma’nalari tahlil qilinadi.

**Annotation.** The article analyzes the role of natural landscapes and flora in Uzbek fine art, their evolution from miniature art to modern painting, as well as their symbolic significance.

**Kalit so‘zlar:** milliy rangtasvir, falsafiy ramzlar, an’anaviylik va badiiy yechim, stilizatsiya, ramziylik va dekorativlik, realistik ko‘rinish, an’anaviy miniatyura, Buxoro maktabi, Zamonaviy rassomlar, Sharq miniatyurasi.

**Keywords:** national painting, philosophical symbols, tradition and artistic solution, stylization, symbolism and decorativeness, realistic appearance, traditional miniature, Bukhara school, modern artists, oriental miniature.

O‘zbek milliy rangtasvirida tabiat va o‘simliklar mavzusi juda boy tarixga ega bo‘lib, u nafaqat tasvir, balki chuqur falsafiy ramzlar majmuidir. O‘zbek milliy rangtasvirida tabiat va o‘simliklar talqini an’anaviylik va badiiy yechimlar asosida o‘ziga xos shakllarda namoyon bo‘ladi.

Milliy rangtasvirda asosan miniatyura va dastgohli manzara janrlari tabiat hamda o‘simliklar talqini an’anaviy Sharq estetikasi va milliy falsafiy qarashlar asosida shakllangan. U stilizatsiya, ramziylik va dekorativlikka asoslanadi, realistik ko‘rinishdan ko‘ra badiiy umumlashtirish va simvolik ma’no ustunlik qiladi[4].

An’anaviy miniatyura Buxoro va Samarqand maktablarida XV–XVII asrlarga oid va Temuriylar davridan boshlab rivojlangan Buxoro miniatyura maktabi o‘zbek milliy rangtasvirining asosiy an’anaviy shakli sifatida shakllandi. Buxoro miniatyuralarida tabiat odatda idealizatsiya qilingan, ramziy va dekorativ tarzda tasvirlanadi. Realistik landshaft o‘rniga soddalashtirilgan, ritmik va rang-barang manzaralar ustunlik qiladi. O‘simliklardan gul, barg, shaftoli, anor, olcha, olma, tol, rayhon, terak, o‘rik, nok, tut va boshqa daraxtlar ko‘p uchraydi. Barglar ko‘pincha uchburchak yoki yumaloq shaklda stilizatsiya qilinadi, ritm va simmetriya saqlanadi. O‘simliklar gullab-yashnagan bog‘lar, daraxtlar va gul butalari shaklida ko‘rsatiladi - bu Sharq miniatyurasiga xos “gulli landshaft” uslubini aks ettiradi[2,B.92].

Tabiat elementlardan suv - kumushrang ariqlar yoki hovuzlarda, toshlar - rang-baranglikda, osmon va bulutlar - oltin yoki ko‘k rangda tasvirlangan. Landshaftlar “afsonaviy” yoki “she’riy” ko‘rinishda bo‘lib, realistik chuqurlik va perspektiva kam qo‘llaniladi. O‘simliklar va tabiat insoniy his-tuyg‘ular muhabbat, sadoqat ramzi sifatida ham ishlatiladi.



Ranglardan yorqin va tiniq - to‘q sariq, qizil, oltin, yashil va ko‘k ustunlik qiladi. Bu ranglar o‘simliklarning dekorativ yorqinligini ta’kidlaydi va miniatyuraga tantanavorlik bag‘ishlaydi. Bo‘yoqlar tabiiy manbalardan mineral bo‘yoqlar, o‘simlik ekstraktlari, oltin va kumush kukunlaridan olinar edi.

Rasmlarda tabiat og‘ushidagi uchrashuvlar, bog‘dagi sahnalar, qabul marosimlari va maishiy lavhalar keng tarqalgan. Masalan, saroy bog‘larida gullagan daraxtlar, gullar va o‘simliklar fonida inson figuralari joylashadi. Bu elementlar kompozitsiyani muvozanatlashtirish va dekorativlikni oshirishga xizmat qiladi. XVI asr oxiridan demokratik mavzular shahar hayoti, hunarmandchilik kuchayganda ham tabiat tasvirlari saqlanib qolgan[4, B.33].

Sa’diyning “Guliston”, “Bo‘ston” nusxalarida bog‘ va gul tasvirlari juda ko‘p berilgan masalan, 1547 yilgi nusxasida, Nizomiyning “Xamsa”si (1648), Firdavsiyning “Shohnoma”si (1664) va boshqa she’riy asarlarda tabiat manzaralari daraxtlar, gullar, suv keng qo‘llanilgan. Mahmud Muzahhib, Muhammad Sharif, Muhammad Muqim kabi ustalar asarlarida o‘simliklar naqsh va bezak sifatida ishlatilgan. Keyingi davrlarda XIX–XX asr boshlari Sadridin Pochchayev va boshqalar bu an’analarni davom ettirgan[3, B.128].

Buxoro maktabida o‘simliklar nafaqat fon, balki ramziy ma’no ham olgan: gullab turgan daraxtlar hayot va go‘zallikni, suv va toshlar esa barqarorlikni ifodalashi mumkin. Bu uslub keyinchalik lakli miniatyura va amaliy bezak san’atida suzana, naqshlar ham aks etgan. Zamonaviy davom etishi Buxoroda bugungi kunda ham “Ustoz-Shogird” kabi miniatyura ustaxonalarida an’anaviy uslub saqlanmoqda. Zamonaviy rassomlardan Davlat Toshev tabiat va o‘simliklarni stilizatsiya qilib, klassik Buxoro uslubida ishlaydilar. Umuman, Buxoro rangtasvir maktabida tabiat va o‘simliklar tasviri dekorativ-estetik va she’riy-ramziy xususiyatga ega bo‘lib, miniatyuraning umumiy yorqinligi va uyg‘unligini ta’minlaydi. Bu elementlar Sharq miniatyurasining boshqa maktablari Hirot, Samarqand bilan o‘xshashliklarga ega, ammo Buxoroga xos ixchamlik va ranglarning boyligi bilan ajralib turadi[4, B.88].

XX asr va zamonaviy dastgohli rangtasvirdagi manzara janri an’anaviy miniatyura ta’sirida milliy ruhni saqlangan holda rivojlandi. Tabiat va o‘simliklar lirik va milliy talqinda: bahor gullari, dala o‘tlari, yong‘oq daraxtlari, paxta dalalari O‘zbekiston tabiatining go‘zalligi va mehnat ramzi sifatida tasvirlanishini yorqin kolorit, yorug‘lik-soya kontrasti orqali hissiyotiy ifodani oshishiga yordam beradi. Buning natijasida esa badiiy yechim ufq-odatlar ritmik munosabatlar bilan uyg‘unlikda yaxlit kompozitsiyani ta’minlaydi.

Sharqona dunyoqarashda o‘simlik va tabiat - hayot, go‘zallik va ilohiy uyg‘unlik ramzi hisoblanadi. Markaziy Osiyo rangtasvir maktabi o‘zining ranglar jilosi va ramziy detallari bilan jahon san’atida alohida o‘rin tutadi[2, B.28].

XX asr va bugungi kun rassomlari O‘rol Tansiqboyev, Akmal Nur, Ro‘zi Choriyevlar ijodida tabiat milliy o‘zlikni anglatish vositasiga aylangan. Ayniqsa O‘rol Tansiqboyevning “Issiqko‘l”, “Mening Vatanim” nomli asarlarida o‘rta osiyo



tabiatining beqiyosligi va quyoshli tafti turli ranglar orqali mahorat bilan tasvirlab berilgan[3, B.103].

Bir qator o‘simliklar lirik manzaralarda paxta, anor, majnuntol kabilar o‘zbek xalqining turmush tarzi va falsafasi bilan uzviy bog‘liq ramziy obraz sifatida tasvirlanadi. Fikrimiz isboti sifatida anor va bodom nusxalari faqat amaliy san‘atda emas, balki polotnolarda ham ko‘p uchraydi. Anor - baraka va serfarzandlik ramzi bo‘lsa, gullagan o‘rik yoki gilos bahoriy yangilanish va umid timsolidir.

O‘zbek milliy rangtasvirida tabiat va o‘simliklar talqini an’anaviylik va badiiy yechim uyg‘unligida milliy o‘zlikni aks ettiradi. Bu meros UNESCO tomonidan ham e’tirof etilgan va bugungi rassomlar tomonidan rivojlantirilmoqda. O‘zbek milliy rangtasvirida tabiat hamda o‘simliklar talqini an’anaviy Sharq estetikasi va milliy falsafiy qarashlar asosida shakllangan. U stilizatsiya, ramziylik va dekorativlikka asoslanadi, realistik ko‘rinishdan ko‘ra badiiy umumlashtirish va simvolik ma’no ustunlik qiladi[3, B.46].

Xulosa qilib aytganda o‘zbek milliy rangtasvirida tabiat va o‘simliklardan foydalanish rassomga o‘z kechinmalarini ifoda etish uchun keng imkoniyat yaratadi. Bu tasvirlar orqali inson va tabiatning ajralmas birligi, vatanparvarlik va estetik go‘zallik g‘oyalari ilgari suriladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Pugachenkova G.A.- “O‘rta Osiyo miniatyurasi”. Toshkent, 1987. (Miniatyura san‘atidagi o‘simliklar va bog‘lar tasviri uchun eng fundamental manba).
2. Abramov M. - “O‘zbekiston tasviriy san‘ati”. Toshkent, 2004. (Janrlar evolyutsiyasi tahlili).
3. Hakimov A. - “O‘zbekiston tasviriy san‘ati: XX asr”. Toshkent, 2010. (Zamonaviy rangtasvirida manzara janrining shakllanishi).
4. Turdiyev N. - “Rangtasvir”. Toshkent, 2007. (Rassomlik texnikasi va tabiat tasviri uslublari).